

Navoiyda lavanda plantatsiyasi bo'yicha loyiha

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi olimlari Fargona viloyatida joylashgan Mehriqiy xususiy korxonasi bilan muzokaralar o'tkazdi. Natijada hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Navoiyda lavanda plantatsiyasini yaratishdan tashqari, Mehriqiy XK xodimlari navoiylik olimlarga sut qushqo'nmas va chufa yer bodom nomli o'simliklar yetishtirish ham ko'zda tutilgan.



Yuridik manzillar:

O'zbekiston Respublikasi «MEHRIGIYO» Xususiy korxonasi	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi
Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 150100, Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani, O'rozimergan ko'chasi, 94 INN: 200192896	Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Galaba shoh ko'chasi, 170. INN: 304959954



Direktor

X.M. Nuriddinov

Rais

A.U. Mirzayev



Bundan tashqari, XKda nafaqat ekzotik dorivorlar, balki kivi, banan, goji, papayya, zaytun daraxti kabi va boshqa tropik va subtropik osimliklarni yetishtirishni ham o'zlashtirganlar. Mehriqiy XK vakillari kivi, goji va lavanda ko'chatlari Navoiy viloyati sharoitida yetishtirishga va ko'paytirishga oid tajribalar o'tkazish uchun eksperimental maydonlarda ekishga zarur bolgan miqdorda Navoiy bo'limiga kuzda yetkazib berish imkoniyatiga ega ekanliklarini bildirdilar.

Navoiy bo'limi olimlari zarur sharoitni tayyorlash maqsadida ushbu o'simliklarni o'stirish agrotexnologiyasini batafsil o'rgana boshladilar.

Kelgusida Navoiy bo'limi Mehriqiy XK bilan quyidagi uch yo'nalish boyicha hamkorlikni kengaytirish rejalashtirmoqda:

- Navoiy shahri chegarasida eko-bog' yaratish;
- fitobarlar uchun xom-ashyo yetkazib berish tarmog'ini tashkil etish;
- qishloq aholisini o'z tomorqalarida hamda lalmikor yerlarda dorivor o'simliklarini yetishtirishga chorlash (Goji o'simligini yetishtirish rejalashtirilgan).